

**FARG‘ONA POLITEXNIKA INSTITUTI HUZURIDAGI TEXNIKA  
FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI ILMIY DARAJASINI  
BERUVCHI PhD. 03/27.02.2020.T.106.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**

**MIRZAALIMOV NAVRUZBEK ALISHER O‘G‘LI**

**KREMNIY QUYOSH ELEMENTLARI ASOSIDA 3D FORMATLI  
FOTOELEKTRIK MODULLARNI ISHLAB CHIQISH**

**05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari**

**TEXNIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Farg‘ona – 2023**

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiya avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on technical sciences**

<b>Mirzaalimov Navruzbek Alisher o‘g‘li</b> Kremniy quyosh elementlari asosida 3D formatli fotoelektrik modullarini ishlab chiqish .....	3
<b>Мирзаалимов Наврузбек Алишер угли</b> Разработка фотоэлектрических модулей 3D формата с кремниевыми солнечными элементами.....	29
<b>Mirzaalimov Navruzbek Alisher o‘g‘li</b> Development of photoelectric modules in 3D format with silicon solar cells...	57
<b>E‘lon qilingan ishlar ro‘yhati</b> Список опубликованных работ List of published works .....	60

**FARG‘ONA POLITEXNIKA INSTITUTI HUZURIDAGI TEXNIKA  
FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI ILMIY DARAJASINI  
BERUVCHI PhD.03/27.02.2020.T.106.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**

**MIRZAALIMOV NAVRUZBEK ALISHER O‘G‘LI**

**KREMNIY QUYOSH ELEMENTLARI ASOSIDA 3D FORMATLI  
FOTOELEKTRIK MODULLARNI ISHLAB CHIQISH**

**05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari**

**TEXNIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Farg‘ona – 2023**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar maxkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida № B2022.4.PhD/T3329 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Andijon davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-saxifasida ([www.ferpi.uz](http://www.ferpi.uz)) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida ([www.ziyo.net](http://www.ziyo.net)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** Aliyev Rayimjon Usmonovich  
texnika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:** Mamadaliyeva Lola Kamildjanovna  
texnika fanlari doktori, professor  
Yuldashev Isroiljon Abriyevich  
texnika fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:** Qarshi davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona politexnika instituti huzuridagi PhD.03/27.02.2020.T.106.02 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil "29" dekabr soat 14.00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 150107, Farg'ona sh. 86 uy. Tel: (+99873)241-12-06, faks (+99873)241-12-06, e-mail: [ilmiy-kengash@farpi.uz](mailto:ilmiy-kengash@farpi.uz), kichik majlislar zali.

Dissertatsiya bilan Farg'ona politexnika institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 199 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 150107, Farg'ona sh. Farg'ona k. 86 uy. Farg'ona politexnika instituti. Tel: (+99873)241-12-06.

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil "14" dekabr kuni tarqatildi.  
(2023 yil "14" dekabr dagi № 4 raqamli restr bayonnomasi)



**S.F.Ergashev**  
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash  
raisi, t.f.d., professor

**B.A.Abdukarimov**  
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash  
ilmiy kotibi, PhD., dotsent

**A.A.Kuchkarov**  
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi,  
PhD., dotsent

## **KIRISH (faslafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi.** Jahonda bugungi kunda elektr energiya manbalariga bo'lgan talabning doimiy o'sishi va global ekologik muammolarning keskinlashishi qayta tiklanuvchi energiya manbalarini jadal qo'llashni kengaytirishni talab etmoqda. Qayta tiklanadigan energiya manbalarining (QTEM) eng ekologik toza va istiqbolli turi yarimo'tkazgichli fotoelektrik quyosh elementlari (QE) orqali olingan quyosh energiyasini fotoelektrik konvertatsiya qilishdir. Qayta tiklanuvchi energiya manbalari hisoblangan yarimo'tkazgichli fotoelektrik energiya o'zgartirgichlarning samaradorligini oshirish, quyosh elementlari yuzasiga tushayotgan yorug'lik oqimining samarali yutilishini ta'minlash, quyosh nurlari bilan yoritilganda ularning sirti qizib ketishining oldini olish, yuqori samarali fotoelektrik energetik qurilmalarning texnik jihatdan optimal konstruksiyalarini ishlab chiqish, ularning fotoelektrik xossalari modellashtirish asosida ishlash samaradorligini oshirish hamda fotoelektrik energiya qurilmalardan foydalanishning o'ziga xos imkoniyatlarini tadqiq etish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahonda fotoelektrik energetik qurilmalarni issiq iqlimga moslashtirilgan konstruksiyalarni takomillashtirish, xususan quyosh elementiga yorug'lik intensivligi, temperatura ta'sirini o'rganish, ayniqsa konsentrlangan quyosh nurlari bilan yoritilganda ularning sirti qizib ketishi tufayli fotoelektrik energetik qurilmalarning samaradorligini tushib ketishining oldini olishga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada, jumladan o'z o'qi atrofida aylanish orqali o'zini sovuta oladigan turli shakldagi fotoelektrik qurilmalarni samaradorligini oshirish va ularning asosiy parametrlarini optimallashtirish, quyosh elementlarining shakli o'zgarishiga fotoelektrik parametrlari material turiga bog'liq ravishda o'zgarishini modellashtirish bo'yicha tadqiqotlar ustuvor hisoblanmoqda. Shu bilan birga, prizma va piramida shakldagi fotoelektrik qurilmalarni yasashda foydalanish uchun turli shakldagi mono- va polikristall kremniy asosli quyosh elementlarini elektrofizik parametrlarini modellashtirish, ish rejimlari xususiyatlarini optimallashtirish, temperatura ortganda quyosh elementlarining foydali ish koeffitsienti kamayishini oldini olish, quyosh elementlaridan sovutish tizimiga ega fotoelektrik qurilmalarni yasash va loyihalash dolzarb vazifalardan hisoblanmoqda.

Respublikamizda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan keng foydalanish va samaradorligini oshirishga yordam beradigan yangi texnologiyalarni yaratish bo'yicha tadqiqotlar o'tkazish va ularni amalda qo'llash yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirib, muayyan natijalarga erishilmoqda. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, jumladan «Iqtisodiyotni elektr energiyasi bilan uzluksiz ta'minlash hamda "Yashil iqtisodiyot" texnologiyalarini barcha sohalarga faol joriy etish, iqtisodiyotning energiya samaradorligini 20 foizga oshirish»<sup>1</sup> bo'yicha muhim vazifalari belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, jumladan, qayta tiklanuvchi energiya

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son

manbalari asosida yangi fotoelektrik energetik qurilmalarni issiq iqlimga moslashtirilgan konstruksiyalarni ishlab chiqish, mavjudlarini modernizatsiya qilish, jumladan, kremniy quyosh elementlari asosida fotoelektrik modullardan foydalanishda, ularning energetik samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-texnik yechimlarni aniqlash muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF- 60-son «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni, 2020 yil 10 iyuldagi PQ-4779-son «Iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va mavjud resurslarni jalb etish orqali iqtisodiyot tarmoqlarining yoqilg‘i-energetika mahsulotlariga qaramligini kamaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»<sup>2</sup>, 2021 yil 9 apreldagi PQ-5063-son «O‘zbekiston Respublikasida qayta tiklanuvchi va vodorod energetikasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2018 yil 17 iyuldagi PQ-3855-sonli “Ilmiy va ilmiy-texnikaviy faoliyat natijalarini tijoratlashtirish samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi<sup>3</sup>, 2018 yil 6 avgustdagi PQ-3899-sonli “Ilmiy va innovatsion faoliyatni integratsiyalash tizimining samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2021 yil 19 martdagi PQ-5032-sonli “Fizika sohasidagi ta‘lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning O‘zbekiston Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustivor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarining IV. “Qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish usullarini ishlab chiqish, nanotexnologiyalar, fotonika va boshqa ilg‘or texnologiyalar asosida texnika va qurilmalarni yaratish” ustivor yo‘nalishiga mos keladi.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Kremniy asosidagi fotoelektrik energetik qurilmalar, yuqori samarador fotoelektrik energiya o‘zgartirgichlar va kremniy asosida quyosh elementlarini ishlab chiqish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar jahonning ilg‘or mamlakatlari ilmiy tadqiqot markazlarida va universitetlarida olib borilmoqda. Xususan, xorij va hamdo‘stlik mamlakatlari olimlaridan Daniel S. Clark, D. Gregory, Christoph Karl La Due (AQSh), Syu-u OZEKI, Mito-shi, Yuji HAMACHI (Yaponiya), E.Skoplaki, J.A.Palyvos (Gresiya), V.A.Grlixes, V.A.Mayorov, S.N.Trushevskiy, D.S.Strebkov (Rossiya), Serj Abraken, Defiz Jan-Marko, Kolett Jan-Pol (Fransiya), A.Farenbrux, R.Byuba (Germaniya) va boshqa bir qator tadqiqotchilar tomonidan ilmiy va amaliy nuqtai nazardan yarimo‘tkazgichli  $p-n$  tuzilmalarning turli fotoelektrik modullarni konstruksiyalash asosida energiyaning fotoelektrik o‘zgartirgich samaradorligini oshirish bo‘yicha izlanishlar olib borilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi akademiklari M.S.Saidov, R.A.Mo‘minov va M.S.Bahodirxonov, professorlar M.N.Tursunov, N.R.Avezova, R.Aliyev va boshqa o‘zbek olimlari tomonidan kremniy asosidagi yuqori samarador

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 10.07.2020 yildagi PQ-4779-son

<sup>3</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 14.07.2018 yildagi PQ-3855-son

fotoelektrik energiya o'zgartirgichlar ishlab chiqish va fotoelektrik xususiyatlari va ularga harorat va yorug'lik intensivligi o'zgarishlarining ta'sirlari keng ko'lamda o'rganilgan. Professorlar A.Mirzaboyev, N.Matchanov va B.M.Abduraxmonovlar tomonidan "Smart Grid" kabi zamonaviy avtomatlashtirilgan tizimlarga ega quyosh fotoelektrik energetik qurilmalar (QFEQ) yaratishning yangi texnik va texnologik afzalliklari ishlab chiqilgan.

Mazkur tadqiqotlar natijasida kremniy quyosh elementlari asosidagi fotoelektrik modullarni ishlab chiqish va tadqiq etishda erishilgan ijobiy natijalarga qaramasdan, texnik-iqtisodiy harajatlarni hisobga olgan holda, monokristall va polikristall kremniy quyosh elementlari asosida 3D formatli fotoelektrik modullar va energetik qurilmalarni yaratish vazifalari yetarli darajada o'rganilmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya ishi Andijon davlat universiteti Fizika kafedrasining 2017-2022 yillarda "Mono- va polikristall asosli quyosh elementlarini raqamli modellashtirish va eksperimental ishlab chiqish imkoniyatlarini, shuningdek, konsentrlangan quyosh nurlarini o'zgartirish uchun gibridd elektr stansiyalarini amaliy tadqiq etish" ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** kremniyli quyosh elementlari asosida 3D formatli fotoelektrik energetik qurilmani raqamli modellashtirish va tajriba usullari bilan ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

- turli shakldagi kremniyli quyosh elementlari asosida piramida va prizma shaklidagi konstruksiyasiga ega 3D formatli fotoelektrik energetik qurilmaning raqamli modelini ishlab chiqish va ilmiy asoslash;

- kremniyli quyosh elementlari asosida piramida va prizma shaklidagi konstruksiyali 3D formatli fotoelektrik energetik qurilmaning dinamik va fotoelektrik xarakteristikalarini aniqlash;

- 3D formatli fotoelektrik energetik qurilmani amaliy (eksperimental) ishlab chiqish va patentlash;

- kremniyli quyosh elementlari asosida 3D formatli fotoelektrik energetik qurilmani ishlab chiqish usullarini o'zlashtirish va xarakteristikalarini o'lchash;

- kremniyli quyosh elementlari asosida piramida va prizma shaklidagi 3D formatli fotoelektrik energetik qurilmalar tajriba na'munalarini ishlab chiqish, sinovdan o'tkazish va amalga oshirish, shuningdek ularning texnik-iqtisodiy xarakteristikalarini aniqlash.

**Tadqiqotning obyekt**i sifatida raqamli texnologiya asosida modellashtirilgan va eksperimental tarzda yaratilgan kremniyli quyosh elementlari asosidagi 3D formatli fotoelektrik energetik qurilmalar olingan.

**Tadqiqotning predmet**i 3D formatdagi kremniyli quyosh fotoelektrik energetik qurilmalarining raqamli modellashtirish texnologiyasi va eksperimental ravishda yaratilgan konstruksiyalarning quyosh energiyasini fotoelektrik konvertatsiya qilishning fizik jarayonlari hisoblanadi.

**Tadqiqot usullari** sifatida “Sentaurus TCAD” dasturiy tizimi va “Sinton Instrument WCT-120”, “Sinton Instrument Suns-Voc”, “EDIBON – Photovoltaic. Units with SCADA: EESFC” eksperimental laboratoriya o‘lchov tizimlari asosida raqamli asbob-texnologik modellashtirish usullari, bundan tashqari “STGraphs”, “STTemperature” va “STVertikal” kabi dasturiy mahsulotlaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

- piramida shaklidagi konstruksiyaga ega 3D formatli fotoelektrik energetik qurilmaning konstruksion parametrlarini optimallashtirish va fotoelektrik ko‘rsatkichlarini hisobga olinib raqamli modellashtirish asosida yassi yuzali quyosh paneliga nisbatan samaradorligi 42,5% gacha yuqori bo‘lishi aniqlangan;

- quyosh elementlarining geometrik shakli, ularning samaradorligiga ta’siri, kremniyli plastinalarning perimetrik yon sirlari bo‘ylab fotogeneratsiyalangan nomuvozanat zaryad tashuvchilar rekombinatsion yo‘qotilishlarini inobatga olgan holda, fotoelektrik energetik qurilmalarda foydalanilgan uchburchak shaklidagi monokristall quyosh elementlarining chiqish quvvati 4% gacha ortishi aniqlangan;

- quyosh elementi sirtiga tushayotgan yorug‘lik nuri energiyasi va bu sirtan tarqalayotgan issiqlik nurlanishi energiyasi farqini ta’minlash orqali uning sirt haroratini pasaytirish usuli ishlab chiqilgan;

- piramida shaklidagi konstruksiyaga ega 3D formatli fotoelektrik energetik qurilmaning vertikal joylashuvini hisobga olgan holda uzluksiz elektr energiya bilan ta’minlash imkonini beruvchi gibrid quyosh-shamol qurilmasini konstruksiyasi ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

- uzluksiz elektr energiyasi ishlab chiqarish uchun konstruksion parametrlarini optimallashtirish asosida gibrid quyosh-shamol energetik qurilmasi ishlab chiqilgan;

- piramida shaklidagi fotoelektrik energetik qurilmalar uchun uchburchak shaklidagi monokristall quyosh elementlaridan foydalanilganda quvvati jihatdan 4% ga, prizma shaklidagi fotoelektrik energetik qurilmalar uchun to‘rtburchak shaklidagi polikristall quyosh elementlaridan foydalanilganda quvvati jihatdan 10% ga ortishi aniqlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** modellashtirishning zamonaviy raqamli usullarini qo‘llanilganligi, mantiqiy birlikning ta’minlanganligi, zamonaviy kompyuterlashtirilgan o‘lchash qurilmalaridan foydalanilganligi, eksperimental olingan va hisoblangan natijalarning o‘zaro mosligi hamda o‘lchash natijalarini qayta ishlashning umumqabul qilingan usullariga tayanganligi bilan asoslanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati quyosh elementlari geometrik shaklining ularning samaradorligiga ta’siri kremniyli plastinalarning emitter va baza qatlamlarida fotogeneratsiyalanayotgan zaryad tashuvchilar, elektr potentsiali, elektrostatik maydon kuchlanganligining fazoviy taqsimoti, rekombinatsiya tufayli yuzaga keluvchi issiqlik ajralishi, tok zichligi haqidagi bilimlarning chuqurlashishi hamda perimetrik yon sirlari bo‘ylab fotogeneratsiyalangan nomuvozanat zaryad tashuvchilar rekombinatsion yo‘qotishlarining tabiati bilan ilmiy asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati piramida shaklidagi konstruksiyaga ega 3D formatli fotoelektrik energetik qurilma sifatida “Fotoelektrik modul” nomli yangi konstruksiya ishlab chiqilganligi va tadbir etilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Kremniy quyosh elementlari asosida 3D formatli fotoelektrik modullarni ishlab chiqish bo‘yicha olingan natijalar asosida:

- kremniyli quyosh elementi asosidagi 3D formatli fotoelektrik energetik qurilmasi (FAP 01804, 24.01.2022 yil) joriy qilingan («O‘zeltexsanoat»ning 2022 yil 3 iyundagi 04-3/1377-son ma’lumotnomasi). Natijada, ishlab chiqarish sharoitida kremniy asosli quyosh elementlaridan tashkil topgan fotoelektrik energetik qurilmalarni optimallashtirish va ularning samaradorligini oshirish imkonini bergan;

- “Foton” AJda yuzalari teng uchburchak va to‘rtburchak shaklidagi mono- va polikristall kremniy asosli quyosh elementlari joriy etilgan (O‘zeltexsanoat»ning 2022 yil 3 iyundagi 04-3/1377-son ma’lumotnomasi). Natijada, monokristall kremniyli quyosh elementini uchburchak shaklda kesilganda 4% ga, polikristall kremniyli quyosh elementini to‘rtburchak shaklda kesilganda 10 % ga chiqish quvvati yuqori bo‘lishiga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Dissertatsiya ishining asosiy natijalari 3 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy anjumanlarida ma’ruza qilingan va muhokama qilingan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 25 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarni chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 maqola jumladan, 6 ta respublika, 4 ta xorijiy (Scopus va Web of Science ma’lumotlar bazasiga kiruvchi) ilmiy jurnallarda nashir etilgan, shuningdek, 1 ta foydali model uchun patent hamda 1 ta dasturiy mahsulot uchun mualliflik guvohnomalari olingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 111 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublikada fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, muammoning o‘rganilganlik darajasi ochib berilgan, tadqiqotning maqsad va vazifalari belgilangan, tadqiqotning ob‘yektlari, tadqiqot usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, ishning aprobatsiyadan o‘tganligi va tuzilishi to‘g‘risida ma‘lumotlar keltirilgan.

**“Kremniy quyosh elementlari asosidagi fotoelektrik modullarning turlari, ishlash tamoyillari va xarakteristikalarini”** deb nomlangan birinchi bobda turli xil fotoelektrik modullarni yig‘ish uchun mo‘ljallangan kremniyli quyosh elementlari haqidagi adabiyot ma‘lumotlari va ularning xarakteristik tahlillari keltirilgan. Fotoelektrik modullarni yaratishning fizik va konstruksiyaviy asoslari bo‘yicha ishlarni ko‘rib chiqish tasvirlangan. Kremniyli quyosh elementlari asosidagi fotoelektrik modullarning ishlash xarakteristikalarini va ekspluatatsion afzalliklari, shuningdek, kremniyli quyosh elementlari va fotoelektrik modullarni modellashtirishning ma‘lum usullari tahlil qilingan.

Quyosh fotoelektrik qurilmasi (QFQ) samaradorligini oshirishning ma‘lum usullari quyidagilardan iborat ekanligi aniqlandi: quyosh fotoelementlari (QFE) narxini pasaytirish va ularning foydali ish koeffitsienti (FIK)ni oshirishga qaratilgan ilg‘or rivojlangan texnologiyalarini ishlab chiqish; quyosh nurlash konsentratorlaridan foydalanish. Issiq iqlim sharoitida kremniyli quyosh elementlari asosidagi fotoelektrik modullarning mo‘tadil ishlashining ilmiy, amaliy va texnik muammolari aniqlandi.

Quyosh fotoelektrik qurilmasi (QFQ)ning ishlash prinsipini modellashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan ishning tahliliga ko‘ra, QFQning xarakteristikalariga hisoblash faktorlarini ta‘sirini hisobga olgan holda va chiqish xarakteristikalarini yuqori aniqlikda hisoblashga imkon beruvchi matematik va imitatsion modellar ishlab chiqilishi zarurligi ma‘lum bo‘ldi. Ko‘p tarmoqli raqamli modellashtirish texnologiyalaridan foydalanish istiqbollari ko‘rsatilgan. Yuqorida keltirilgan adabiyotlardagi ma‘lumotlarni tahlil qilish asosida dissertatsiya tadqiqotining kirish qismida maqsad va vazifalari shakllantirilgan.

**“Kremniyli quyosh elementlari asosida 3D formatli fotoelektrik modullarni ishlab chiqishning ilmiy-uslubiy xarakteristikalarini”** deb nomlangan ikkinchi bobda 3D formatli fotoelektrik modul uchun kremniyli quyosh elementlarini (QE) tanlash va ularning xarakteristikalarini aniqlash usullari asoslangan. 3D formatli FMni yig‘ish uchun mo‘ljallangan kremniyli quyosh elementlarining xarakteristikalarini eksperimental tahlil qilish amalga oshirildi. 3D formatli FMni yaratish va ularning xarakteristikalarini aniqlash usullari ilmiy asoslandi.

Taqdim etilgan 3D formatli FM geometrik shakliga qarab, ham to‘rtburchak, ham uchburchak shakldagi QElardan foydalanish mumkin. Monokristall va polikristall asosidagi kremniyli QEni tanlash mumkin bo‘ladi.

Quyosh panelini (QP) yoki quyosh modullarini (QM) yig'ishda ularning ish maydonini (sirtini) eng samarali to'ldirish muhim amaliy vazifalardan biri hisoblanadi. Tabiiyki, agar QP yoki QM to'rtburchak maydonga ega bo'lsa, u holda to'rtburchak shakldagi quyosh elementlarini (QE) ishlatish kerak. Bunday holatdagi an'anaviy to'rtburchak shaklidagi QP ko'pincha sanoatda ishlab chiqariladi. Ushbu ishda huddi shunday holat tadqiqot uchun tayyorlangan QM ining asosiy formatining prizmatik shakldagi 3D formatli QMiga mos keladi.


Dissertatsiya tadqiqotida tadqiqot uchun tayyorlangan quyosh modullarining (QM) asosiy formatining piramidal shakliga ega 3D formatli QMlariga alohida e'tibor qaratilgan. QMning bunday konstruksiyalarida ishchi maydonni yanada samarali to'ldirish uchun uchburchakli quyosh elementlari (QE)dan foydalanish zarur. Shuning uchun dissertatsiya tadqiqoti davomida turli shakl va o'lchamdagi QElarni o'rganish bo'yicha vazifalar qo'yildi. Bu muammoni yechish usullari ham kompyuterda modellashtirish, ham eksperimental tarzda xal qilindi.



1-rasm. Piramida shaklidagi va prizmatik arxitekturaga ega 3D formatli quyosh fotoelektrik modullari hamda tekis panelning fotosuratlari




2-rasm. Prizmatik arxitekturaga ega kichik o'lchamdagi 3D formatli quyosh modulining prototipi fotosurati




3-rasm. Frenel linzali Prizmatik arxitekturaga ega 3D formatli fotoelektrik modulning mikro-energetik qurilmasi




4-rasm. Kremniyli quyosh panellari asosida prizma shaklidagi fotoelektrik modulning sanoat na'munasi fotosurati




5-rasm. “Sinton Instrument Suns-Voc” qurilmasi yordamida o‘lchangan o‘lchami 52×52 mm<sup>2</sup> bo‘lgan mono- va polikristall kremniyli quyosh elementlarining volt-ampere xarakteristikasi



6-rasm. “Sinton Suns-Voc” qurilmasi yordamida olingan o‘lchamlari 52×52 mm<sup>2</sup> bo‘lgan mono- va polikristall kremniyli quyosh elementlarining salt yurish kuchlanishi va yorug‘lik intensivligini yorug‘lik manbai ekspozitsiya vaqtiga bog‘liq o‘zgarishi



7-rasm. Uchburchak shaklidagi mono- va polikristall kremniyli quyosh elementlarining volt-ampere xarakteristikalari



8-rasm. “Sinton Suns-Voc” qurilmasi yordamida uchburchak shaklidagi mono- va polikristall kremniyli quyosh elementlarining salt yurish kuchlanishi va yorug‘lik intensivligini yorug‘lik manbai ekspozitsiya vaqtiga bog‘liq o‘zgarishi

Dissertatsiyaning “**3D formatli fotoelektrik modullarni modellashtirish va xarakteristikalarini tadqiq qilish usullari**” deb nomlangan uchinchi bobda kremniyli QElari asosidagi 3D formatli fotoelektrik modullarning modellashtirish usullari asoslangan. 3D formatli fotoelektrik modullarning dinamik modelini ishlab chiqish fizikasi ochib berilgan. Raqamli modellarni ishlab chiqish natijalari va piramidal shakldagi Fmlarning xarakteristikalari tahlil qilingan va taqdim etilgan. 3D formatli FMda foydalaniladigan QElarining shakllarini eksperimental va hisoblash tadqiqot ishlari bajarilgan.

Nazariy jihatdan tasavvur qilaylik, quyosh paneliga tushayotgan yorug‘likning quvvati va aylantirilgan elektr energiyasi orasida quyidagicha bog‘lanish mavjud bo‘lsin:

$$P_c = P_{in} - P_{dis} \quad (1)$$

Bu yerda  $P_c$  – aylantirilgan elektr energiyasi quvvati,  $P_{in}$  – quyosh paneliga tushayotgan yorug‘likning quvvati,  $P_{dis}$  – yo‘qotilgan quvvat.

Keltirilgan parametrlarning yorug‘lik intensivligi va temperaturaga bog‘liqligi quyidagicha:

$$P_{in} = I \cdot \alpha \cdot S \quad (2)$$

$$P_{dis} = U_L \cdot (T_c - T_a) \cdot S \quad (3)$$

$$P_c = \eta \cdot I \cdot S \quad (4)$$

Bu yerda  $I$  – yorug‘lik intensivligi,  $S$  – quyosh paneli sirtining yuzasi,  $\eta$  – quyosh paneli FIK,  $U_L$  – issiqlik yo‘qotish koeffitsienti,  $\alpha$  – quyosh panelining nur yutish koeffitsienti.

$$\eta \cdot I \cdot S = I \cdot \alpha \cdot S - U_L \cdot (T_c - T_a) \cdot S \quad (5)$$

$$\eta \cdot I = I \cdot \alpha - U_L \cdot (T_c - T_a) \quad (6)$$

Ifodalardan foydalanib  $T_c$  ni topish mumkin:

$$U_L \cdot (T_c - T_a) = I \cdot (\alpha - \eta) \quad (7)$$

$$T_c - T_a = I / U_L \cdot (\alpha - \eta) \quad (8)$$

$$T_c = T_a + I \cdot \alpha / U_L \cdot (1 - \eta / \alpha) \quad (9)$$

Agar normal sharoitda (NOCT) deb hisoblasak:

$$U_L = \frac{I \cdot (\alpha - \eta)}{T_{c,NOCT} - T_{a,NOCT}} = \frac{\alpha \cdot I_{NOCT}}{T_{c,NOCT} - T_{a,NOCT}} \quad (10)$$

Demak,  $\eta = 0,21$ ,  $I = 1000 \frac{W}{m^2}$ ,  $\alpha = 0,73$  бўлганда,  $U_L = 26 W/(m^2 \cdot K)$

$$T_c = T_a + I / I_{NOCT} (T_{c,NOCT} - T_{a,NOCT}) (1 - \eta_c / \alpha) \quad (11)$$

$$T_c = T_a + I_a / I_{NOCT} (U_{L,NOCT} / U_L) (T_{c,NOCT} - T_{a,NOCT}) (1 - \eta_c / \alpha) \quad (12)$$

Polikristall kremniyli QPlari uchun konveksiya koeffitsienti Skoplaki tomonidan tadqiq qilingan va majburiy konveksiya uchun empirik formula quyidagicha olingan:

$$q_\omega = 5,7 + 3,8 \cdot \vartheta \quad (13)$$

QPining yuzasi va atrof-muhit temperaturasi orasidagi farq vujudga kelsa issiqlik nurlanish tufayli qo‘shimcha energiya almashinuvi jarayoni sodir bo‘ladi:

$$q_{rad} = \delta \cdot \varepsilon \cdot (T_c^4 - T_s^4) \quad (14)$$

yoki

$$q_{rad} = \delta \cdot \varepsilon \cdot (T_c^2 + T_s^2)(T_c + T_s)(T_c - T_s) / (T_c + T_a) \quad (15)$$

Bu yerda,  $T_s$  – osmonning temperaturasi,  $\varepsilon$  – issiqlik yutish koeffitsienti,  $\delta$  – Bolsman doimiysi.

$$q = q_\omega + q_{rad} \quad (16)$$

Agar boshlang'ich holatda  $T_c = T_\alpha$  bo'lsa, u holda  $q = q_\omega$ ,  $U_L = q$  bo'ladi va shunday qilib quyidagi ifodani olish mumkin:

$$T_c = T_a + \left( I \cdot \frac{\alpha}{5,7+3,8 \cdot \vartheta} \right) \cdot \left( 1 - \frac{\eta_c}{\alpha} \right) \quad (17)$$

$$T_c = T_a + \left( \frac{I \cdot \alpha}{5,7+3,8 \cdot \vartheta} \right) \cdot \left( 1 - \frac{\eta_c \cdot T_c}{\alpha} \right) \quad (18)$$

$$\eta \cdot (T_c) = \eta_{ref} (1 - \beta (T_c - T_{ref})) \quad (19)$$

$$T_c = T_a + \left( \frac{I \cdot \alpha}{5,7+3,8 \cdot \vartheta} \right) \cdot \left( 1 - \eta_{ref} (1 - \beta (T_c - T_{ref})) / \alpha \right) \quad (20)$$

$$T_c = T_a + \left( \frac{I \cdot \alpha}{5,7+3,8 \cdot \vartheta} \right) \cdot \left( 1 - \frac{\eta_{ref}}{\alpha} + \frac{\eta_{ref} \cdot \beta}{\alpha (T_c - T_{ref})} \right) \quad (21)$$

$$T_c = T_a + \left( \frac{I \cdot \alpha}{5,7+3,8 \cdot \vartheta} \right) \cdot \left( 1 - \frac{\eta_{ref}}{\alpha} + \frac{\eta_{ref} \cdot \beta \cdot T_c}{\alpha} - \frac{\eta_{ref} \cdot \beta \cdot T_{ref}}{\alpha} \right) \quad (22)$$

$$T_c \left( 1 - \left( \frac{I \cdot \alpha}{5,7+3,8 \cdot \vartheta} \right) \cdot \left( \frac{\eta_{ref} \cdot \beta}{\alpha} \right) \right) = T_a + \left( \frac{I \cdot \alpha}{5,7+3,8 \cdot \vartheta} \right) \cdot \left( 1 - \frac{\eta_{ref}}{\alpha} \right) - \left( \frac{\eta_{ref} \cdot \beta \cdot T_{ref}}{\alpha} \right) \quad (23)$$

$$T_c = \left( T_a + \left( \frac{I \cdot \alpha}{5,7+3,8 \cdot \vartheta} \right) \cdot \left( 1 - \frac{\eta_{ref}}{\alpha} - \frac{\eta_{ref} \cdot \beta \cdot T_{ref}}{\alpha} \right) \right) / \left( 1 - \left( \frac{I \cdot \alpha}{5,7+3,8 \cdot \vartheta} \right) \cdot \left( \frac{\eta_{ref} \cdot \beta}{\alpha} \right) \right) \quad (24)$$

QP sirtining temperaturasi yuqoridagi ifoda orqali aniqlanadi. Bu yerda,  $\eta_{ref}$  - quyosh panelining  $T_{ref}$  temperaturadagi FIK.

Kesik piramida shaklida ishlab chiqilgan tajriba qurilmasi asosiy parametrlarining o'zaro bog'liqligini ko'rib chiqamiz. Elektromotorining kuch momenti qurilmaning aylanishiga olib keladi va havo qarshiligini yengib chiqadi:

$$M_t = M + M_{fr} \quad (25)$$

$$M = I \varepsilon \quad (26)$$

$$dM_{fr} = F_{fr} dr \quad (27)$$

Bu yerda,  $M_t$  – tashqi kuch momenti (elektromotor),  $M$  – harakatlantiruvchi kuch momenti,  $M_{fr}$  – ishqalanish kuchi momenti,  $I$  – inersiya momenti,  $\varepsilon$  – burchak tezlanishi.

Qurilma piramida shaklida bo'lgani uchun turli balandliklarda turlicha havoning ishqalanish kuchi momenti ta'sir qiladi.

Agar qurilma radiusining  $dr$  qismiga  $dM_{fr}$  ishqalanish kuch momenti ta'sir qilsa, umumiy ishqalanish kuchi momentini radius bo'ylab ishqalanish kuchi momentini integrallash orqali aniqlash mumkin.

$$F_{fr} = k \vartheta = k \omega r \quad (28)$$

Bu yerda  $k$  – ishqalanish koeffitsienti (havo qarshiligi),  $v$  – chiziqli tezlik,  $\omega$  – burchak tezligi,  $r$  – qurilmaning egrilik radiusi.

Qurilmaning past tezliklarida havoning qarshilik kuchi bilamizki tezlikning birinchi darajasiga to'g'ri proporsional bo'ladi:

$$M_{fr} = k \omega dr \quad (29)$$

$$M_{fr} = \int_{r_2}^{r_1} k \omega r dr \quad (30)$$

$$M_{fr} = \frac{k \omega (r_1^2 - r_2^2)}{2} \quad (31)$$

$$M_t = I \varepsilon + \frac{k \omega (r_1^2 - r_2^2)}{2} \quad (32)$$

Nyutonnig aylanma harakatlar dinamikasi uchun ikkinchi qonuniga binoan qurilmaning aylanma harakat kuch momenti  $M = I \varepsilon$  orqali aniqlanadi.

Burchak tezlanishi quyidagi ifoda orqali aniqlanadi:

$$\varepsilon = \frac{d\omega}{dt} \quad (33)$$

Yuqoridagi ifodalardan foydalanib, qurilmaning aylanish dinamikasi uchun asosiy tenglamani olish mumkin:

$$I \frac{d\omega}{dt} + \frac{k\omega(r_1^2 - r_2^2)}{2} = M_t \quad (34)$$

Endi (34) tenglamani yechishga o'tamiz:

$$\frac{d\omega}{dt} + \frac{k\omega(r_1^2 - r_2^2)}{2I} = \frac{M_t}{I} \quad (35)$$

Agar belgilash kiritib olsak:

$$\gamma = k \frac{(r_1^2 - r_2^2)}{2I} \quad (36)$$

unda tenglamani quyidagi ko'rinishda olish mumkin:

$$\frac{d\omega}{dt} + \gamma\omega = \frac{M_t}{I} \quad (37)$$

Differensial tenglamani yechish quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$\omega = \frac{M_t}{I\gamma} + Ce^{-\gamma t} \quad (38)$$

Boshlang'ich vaqtda  $t=0$ ,  $\omega=0$  desak, u holda

$$\sigma = \frac{M_t}{I\gamma} + C \quad C = -\frac{M_t}{I\gamma}$$

va quyidagi ko'rinishdagi yechim yuzaga keladi:

$$\omega = \frac{M_t}{I\gamma} + 1 - e^{-\gamma t} \quad (39)$$

va quyidagi ko'rinishdagi yechim yuzaga keladi:

$$\omega = \frac{2M_t}{k(r_1^2 + r_2^2)} \left( 1 - e^{-\frac{k(r_1^2 - r_2^2)}{2I} t} \right) \quad (40)$$

Olingan (40) tenglamadan quyidagi fizik xulosalarni olish mumkin. Qurilma harakatlanishning boshlang'ich vaqtlarida tezlanish bilan harakat qiladi va ma'lum vaqtdan keyin esa o'zgarmas tezlikka erishadi. Bunga sabab havoning ishqalanish kuchi momenti bilan motorning qurilmaga beradigan kuch momenti tenglashib qolgani. Odatda bu holatga erishish uchun 1-2 soniya kerak bo'ladi. Tabiiyki, bu jarayon qurilmaning inersiya momentiga, havo qarshiligik kuchiga va elektromotor kuvvatiga bog'liq.

Bu yerda inersiya momenti quyidagicha aniqlanadi:

$$I_z = \frac{2m(a^2 - b^2)}{a^3 - b^3} \left( \frac{1 + \cos^2 \alpha}{24} + \frac{h^2 \sin^2 \alpha}{5(a-b)^2} \right) \quad (41)$$

$$\alpha = \arctg \left( \frac{2h}{\sqrt{3}(a-b)} \right) \quad (42)$$

C# 9.0 dasturlash tili imkoniyatlaridan kelib chiqib, energetik qurilmaning ishlashini ko'rsatish va dastlabki tadqiqotlarni amalga oshirish uchun mo'ljallangan yangi "ST Vertical" EHM uchun dasturiy mahsulot ishlab chiqildi, bu EHM dasturiy mahsulotga IMAdan № DGU 09198 raqamli "Guvohnoma" olindi.

Yarimo'tkazgichli qurilmalarni modellashtirish bu eksperimental aniqlangan material xususiyatlaridan va fundamental nazariyalardan foydalanib qurilamning ishlash prinsipini va uning parametrlarini aniqlashdir. Yarimo'tkazgichli qurilmaning strukturasi qarab, modellashtirish oddiydan kompleksgacha murakkablashib boradi. Eng oddiy yarimo'tkazgichli qurilma bu dioddir. Qening asosini ham diod tashkil qiladi. Lekin, quyosh elementi modellashtirish murakkab bo'lgan yarimo'tkazgichli qurilmalar tarkibiga kiradi. Chunki u optoelektronik qurilma hisoblanadi va modellashtirish ikki bosqichda olib boriladi. Birinchi optik

xususiyatlari aniqlanadi. Buning uchun asosan uch xil “*Ray Tracing*”, “*Transfer Matrix Method (TMM)*” yoki “*Beam Propagation*” metodlaridan keng foydalanildi. Ushbu ilmiy ishda optik xususiyatalarni aniqlash uchun TMM metodidan foydalanildi. TMM tushuvchi, qaytuvchi va o‘tuvchi nurlarning energiyalari orasidagi munosabatlarni formula (43) da berilganidek matritsa yordamida ifodalaydi.

$$\begin{bmatrix} E_i \\ E_r \end{bmatrix} = M \begin{bmatrix} E_t \\ 0 \end{bmatrix} \quad (43)$$

bu yerda:  $M$  — matritsa,  $E_i$  — tushuvchi yorug‘likning elektr maydon kuchlanganligi,  $E_r$  — qaytuvchi yorug‘likning elektr maydon kuchlanganligi,  $E_t$  — o‘tuvchi yorug‘likning elektr maydon kuchlanganligi.

QEda turli muhitlar ya’ni havo va kremniy kesishmalari mavjud bo‘lgani uchun optik chegaraviy shartlar berilishi shart. Optik chegaraviy shartlar yorug‘likning parametralriga qarab ikkiga bo‘linadi: energiya va burchak. Ikki muhit chegarasida tushayotgan, qaytayotgan va o‘tayotgan nurlarning energiyalari orasidagi munosabatlar (44) formulada berilgan Frenel formulalari yordamida aniqlanadi.

$$\begin{cases} r_t = \frac{n_1 \cos \beta - n_2 \cos \gamma}{n_1 \cos \beta + n_2 \cos \gamma} \\ t_t = \frac{2n_1 \cos \beta}{n_1 \cos \beta + n_2 \cos \gamma} \\ r_p = \frac{n_1 \cos \gamma - n_2 \cos \beta}{n_1 \cos \gamma + n_2 \cos \beta} \\ t_p = \frac{2n_1 \cos \beta}{n_2 \cos \beta + n_1 \cos \gamma} \end{cases} \quad (44)$$

bu yerda:  $r_t$  va  $t_t$  — ko‘ndalang qutblangan elektromagnit to‘lqin uchun frenel koeffitsientlari,  $r_p$  va  $t_p$  — parallel qutblangan elektromagnit to‘lqin uchun frenel koeffitsientlari,  $n_1$  va  $n_2$  — birinchi va ikkinchi muhitalarning nur sindirish ko‘rsatkichi,  $\beta$  — yorug‘lik nurining tushish burchagi hamda  $\gamma$  — singan nur va vertical orasidagi burchak.

Ikki muhit chegarasida burchaklar orasidagi munosabat esa formula (45) da berilgan Snelli qonuni orqali aniqlanadi.

$$\frac{n_1}{n_2} = \frac{\sin(\gamma)}{\sin(\theta)}, \quad \beta = \theta \quad (45)$$

bu yerda:  $\theta$  — qaytayotgan yorug‘lik va vertikal orasidagi burchak.

TMM va optik cheraaviy shartlardan foydalanib quyosh elementining asosiy optik parametrlari qaytish, o‘tish va yutulish koeffitsientlari aniqlanadi. Modellashtirishni mantiqiy davom ettirish uchun kvant rentabillik funksiyasi va Burger-Lambert qonunidan foydalanib optik generatsiya hisoblanadi. Kvant rentabillik bu mantiqiy funksiya bo‘lib quyosh elementida yutulayotgan foton energiyasi QEda ishlatilgan material ta’qiqlangan zona kengligidan katta bo‘lsa 1 ga teng bo‘ladi ya’ni elektron-kovak juftligini hosil qiladi va kichik bo‘lsa 0 ga teng bo‘ladi ya’ni ushbu foton yutilmaydi va elektron-kovak juftligi hosil bo‘lmaydi. Ushbu metoddan foydalanib QEning ixtiyoriy hajmidagi fotogeneratsiyalangan zaryad tashuvchilar konsentratsiyasi aniqlanadi.

Optik xususiyatlar aniqlangandan so‘ng elektr xususiyatlari aniqlanadi. Buning uchun eng asosiysi formula (46) da berilgan Puasson tenglamasi hisoblanadi.

$$\Delta\varphi = -\frac{q}{\varepsilon}(p - n - N_D + N_A) \quad (46)$$

bu yerda:  $\varepsilon$  — dielektrik singdiruvchanlik,  $n$  va  $p$  — elektron va kovaklarning konsentratsiyasi,  $N_D$  va  $N_A$  — donor va akseptor kirishmalarning konsentratsiyasi,  $q$  — elektron zaryadi.

Puasson tenglamasi tarkibidagi  $p$ - va  $n$ - zaryad tashuvchilar konsentratsiyasini formula (47) da berilgan Fermi funksiyasi yordamida aniqlanadi.

$$n = N_c F_{1/2} \left( \frac{E_{F,n} - E_c}{kT} \right) \text{ va } p = N_v F_{1/2} \left( \frac{E_v - E_{F,p}}{kT} \right) \quad (47)$$

bu yerda:  $N_c$  va  $N_v$  o‘tkazuvchanlik va valent zonadagi ruxsat etilgan holatlar zichligi,  $E_c$  — o‘tkazuvchanli zonasining minimal energiyasi,  $E_v$  — valent zonasining maksimal energiyasi,  $T$  — temperatura,  $k$  — Bolsman doimiysi,  $E_{F,n}$  va  $E_{F,p}$  Kvazi-Farmi sath energiyalari.

Quyosh elementidagi  $p$ - $n$  o‘tish tufayli ichki elektr maydon yuzaga keladi va elektron-kovak juftligini bir-biridan ajratadi. So‘ng zaryad tashuvchilar ko‘chishi yuzaga keladi. Zaryad tashuvchilar ko‘chishi esa elektr tokini hosil qiladi. *Sentaurus TCAD* da zaryad tashuvchilar ko‘chishini hisoblash uchun asosan 4 ta model mavjud: *Dreyf-Diffuzion*, *Termodinamik*, *Hydrodinamik* va *Monte Carlo*. Ushbu ilmiy ishda quyosh elementiga temperaturaning ta’siri hisobga olinmagani uchun zaryad tashuvchilar ko‘chishini hisoblash uchun formula (48) da berilgan *Dreyf-Diffuzion* modeldan foydalanildi.

$$\begin{aligned} \vec{J}_n &= \mu_n (n \nabla E_c - 1.5nkT \nabla \ln m_n) + D_n (\nabla n - n \nabla \ln \gamma_n) \\ \vec{J}_p &= \mu_p (p \nabla E_v + 1.5pkT \nabla \ln m_p) - D_p (\nabla p - p \nabla \ln \gamma_p) \end{aligned} \quad (48)$$

bu yerda:  $J_n$  va  $J_p$  elektron va kovaklar hosil qilayotgan tok zichligi,  $m_n$  va  $m_p$  elektron va kovaklarning effektiv massasi,  $\gamma_n$  va  $\gamma_p$  Fermi funssiyasi yordamida aniqlanadigan kattaliklar,  $D_n$  va  $D_p$  elektron va kovakalrning diffuziya koeffitsienti,  $\mu_n$  va  $\mu_p$  elektron va kovaklarning harakatchanligi.

Zaryad tashuvchilarning harakatchanligini hisoblash uchun Mazetti formulasidan foydalanildi. Mazetti empirik formulasi zaryad tashuvchilarning harakatchanligiga temperatura, kirishma konsentratsiyasi ta’sirini va ular bilan fonon sochilishini hisobga oladi. Kremniyning noto‘g‘ri o‘tishli yarimo‘tkazgich bo‘lgani uchun, faqat kremniydan yasalgan qurilmalarni modellashtirishda radiativ rekombinatsiya hisobga olinmaydi. Shuning uchun faqat Oje (Auger) va Shokli-Rid-Xolla (Shokley-Read-Hall) rekombinatsiyasining hisobga olinadi.

QElarini sifatli bo‘lishida metall kontaktlarning roli katta. Ushbu ilmiy ishda QEning ustki va ostki qismida omik kontakt hosil qilindi. Hisoblash sonli metodlarda olib borilayotgani tufayli modelga elektr chegaraviy shartlarni ham kiritilishi kerak. Kontakt va yarimo‘tkazgich orasida omik o‘tish hosil qilinganligi tufayli formula (49) da berilgan Omik chegaraviy shartlardan foydalanildi.

$$\begin{aligned}\vec{J}_M \cdot \hat{n} &= (\vec{J}_n + \vec{J}_p + \vec{J}_D) \cdot \hat{n} \\ \phi &= \Phi_M - \Phi_0 \\ n &= n_0 \\ p &= p_0\end{aligned}\tag{49}$$

bu yerda:  $J_m$  — metaldagi zaryad tashuvchilar hosil qilayotgan tok zichligi,  $J_D$  — diffusion tok zichligi,  $\phi$  — elektrostatik potensial,  $\Phi_m$  — metaldagi fermi potentsiali,  $\Phi_0$  — muvozanat holatidagi elektrostatik potensial,  $n_0$  va  $p_0$  muvozanat holatidagi elektron va kovaklar konsentratsiyasi.


Quyosh elementlarini sifatini aniqlash uchun asosan “*Suns-Voc*” xarakteristikadan foydalaniladi. Ushbu xarakteristika yordamida Qening oldi va orqa yuzasining passivatsiya va kontaktlar sifatini baholash mumkin. Tajribada QElarining “*Suns-Voc*” xarakteristikasini aniqlash uchun *Sinton* qurilmalaridan foydalanildi. Shuningdek, 9-rasmda tajribada o‘lchangan o‘lchami 1352 mm<sup>2</sup> bo‘lgan polikristall va 10-rasmda monokristall kremniy asosli to‘rtburchak va uchburchak shakldagi QElarining salt yurish kuchlanishini yorug‘lik intensivligiga bog‘liqligi tasvirlangan. To‘rtburchak shakldagi polikristall kremniy asosli QElarining salt yurish kuchlanishi past yorug‘lik intensivliklarda uchburchak shakldagi nisbatan yuqoriroq kuchlanishga ega bo‘ldi. Masalan, 0,1 quyosh yorug‘lik intensivligida, to‘rtburchak shakldagi na‘munaning salt yurish kuchlanishi uchburchak shakldagiga nisbatan 0,06 V ga kattaligi aniqlandi. Yorug‘lik intensivligi ortgan sari ushbu farq kichiklashib bordi. 1 quyosh yorug‘lik intensivligida farq 0,01 V gacha kamaydi. Bunga sabab, past yorug‘lik intensivligida generatsiya tezligi ham past bo‘ladi. Ya‘ni quyosh elementini sifatini belgilashda rekombinatsiya asosiy rolni o‘ynaydi. Chunki, polikristall kremniydagi donadorli chegaralari mavjud bo‘lgani uchun rekombinatsiya tezligi yuqoriroq bo‘ladi. Bundan tashqari bir xil yuzali to‘rtburchak shaklning perimetri uchburchakka nisbatan kichik bo‘ladi. Ya‘ni zaryad tashuvchilarning Qening chetlarida harakatlanishi ularni rekombinatsiyaga uchrash ehtimolligini orttiradi. Ya‘ni Qening yuzasi va chetlarida to‘lmagan bog‘lar tufayli nuqsonlar hajmdagiga nisbatan ko‘proq bo‘ladi. To‘lmagan bog‘lar esa kislorodni o‘zida tutib rekombinatsiya markazlarini hosil qiladi. QElarining oldi va orqa yuzasi  $SiN_x$  yoki  $SiO_2$  yordamida passivatsiyalanadi, lekin ularni yon tomonlari passivatsiyalanmaydi. Polikristall kremniy asosli QEga tushayotgan yorug‘lik intensivligi ortganda generatsiya tezligi ham ortadi. Shuning uchun, polikristall kremniyning salt yurish kuchlanishiga shaklning ta‘siri ham kamayib boradi.

Demak, polikristall kremniy asosli quyosh elementida asosan shaklning o‘zgarishi rekombinatsiya tezligiga ta‘sir qilishi ma‘lum bo‘ldi. Monokristall kremniy asosli quyosh elementida esa uchburchak shakldagi quyosh elementining salt yurish kuchlanishi to‘rtburchakka nisbatan yuqori bo‘ldi. Bundan tashqari, intensivlik ortganda salt yurish kuchlanishlari orasidagi farq ham ortdi. Monokristall kremniyda rekombinatsiya faqat kirishma atomlar ionlanishi va ularni rekombinatsiya markazlariga aylanishi tufayli yuzaga kelgani uchun past intensivliklarda ham kuchlanishlar farqi juda kichik bo‘ldi. Intensivlik ortganda esa fotogeneratsiyalanayotgan elektron-kovaklar juftligi ham ortadi. Zaryad


tashuvchilarning miqdorini keskin ortishi monokristall kremniy asosli QElarida elektron-elektron sochilishining ehtimolligini ortishiga sabab bo‘ladi.

«Sinton Suns-Voc» qurilmasida QElarining psevdovolt-ampexarakteristikasini ham aniqlash mumkin.


11-rasmda o‘lchami 1352 mm<sup>2</sup> bo‘lgan polikristall va 12-rasmda monokristall kremniy asosli to‘rtburchak va uchburchak shakldagi quyosh elementlarining psevdovolt-ampexarakteristikasi tasvirlangan. Polikristall kremniy asosli QE uchun to‘rtburchak shaklidagi na‘muna yaxshiroq volt-ampexarakteristikaga erishdi. Monokristall kremniyda esa uchburchak shakldagi na‘muna yaxshiroq volt-ampexarakteristikaga erishdi. Lekin monokristall kremniy asosli quyosh elementida volt-ampexarakteristikasidagi farq juda kichik bo‘ldi.




**9-rasm.** O‘lchami 1352 mm<sup>2</sup> bo‘lgan polikristall kremniy asosli to‘rtburchak va uchburchak shakldagi quyosh elementlarining salt yurish kuchlanishini yorug‘lik intensivligiga bog‘liqligi



**10-rasm.** O‘lchami 1352 mm<sup>2</sup> bo‘lgan monokristall kremniy asosli to‘rtburchak va uchburchak shakldagi quyosh elementlarining salt yurish kuchlanishini yorug‘lik intensivligiga bog‘liqligi




**11-rasm.** O‘lchami 1352 mm<sup>2</sup> bo‘lgan polikristall kremniy asosli to‘rtburchak va uchburchak shakldagi quyosh elementlarining volt-ampexarakteristikasi




**12-rasm.** O'lchami 1352 mm<sup>2</sup> bo'lgan monokristall kremniy asosli to'rtburchak va uchburchak shakldagi quyosh elementlarining volt-ampere xarakteristikasi


Quyosh elementining ishlashiga asosan rekombinatsiya jarayoni ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun, 13-rasmda aktiv yuzalari teng bo'lgan parallelepiped va uchburchak prizma shaklidagi kremniy asosli QEidagi Shokli-Rid-Xoll (*Shokley-Read-Hall*) rekombinatsiya miqdorini taqsimoti tasvirlangan. Ikkala element uchun ham rekombinatsiya taqsimoti qatlamlar bo'yicha deyarli bir xilligi aniqlandi. Taqsimotda baza sohada rekombinatsiya miqdori kattaligi tasvirlangan, chunki baza sohasida Shokli-Rid-Xoll (*Shokley-Read-Hall*) (*SRH*) rekombinatsiya ulushi Auger rekombinatsiyasiga qaraganda kattaroq bo'ladi. Kirishma konsentratsiyasi kritik qiymatdan ortganda, *SRH* rekombinatsiyasi ortmaydi lekin Oje (*Auger*) rekombinatsiyasi miqdori keskin ortadi. Shuning uchun emitter sohada Oje (*Auger*) rekombinatsiyasini va baza sohada *SRH* rekombinatsiyasining ulushi katta bo'ladi.




**13-rasm.** Aktiv yuzalari teng bo'lgan parallelepiped (a) va uchburchak prizma (b) shaklidagi kremniy asosli quyosh elementidagi Shokli-Rid-Xoll (*Shokley-Read-Hall*) rekombinatsiya miqdorini taqsimoti [birlik o'lchami:  $\text{cm}^{-3}\text{s}^{-1}$ ]




**14-rasm.** Modellashtirishda aniqlangan aktiv yuzalari teng bo'lgan parallelepiped shaklidagi kremniy asosli quyosh elementining volt-ampere xarakteristikasi




**15-rasm.** Modellashtirishda aniqlangan aktiv yuzalari teng bo‘lgan uchburchak prizma shaklidagi kremniy asosli quyosh elementining volt-ampere xarakteristikasi



**16-rasm.** O‘lchami  $56 \times 56 \text{ mm}^2$  bo‘lgan 24 ta kremniy asosli quyosh elementining ketma-ket ulanishidan hosil qilingan prizma shakldagi 3D formatli fotoenergetik qurilmani stasionar va aylanayotgan holatdagi volt-ampere xarakteristikalari



**17-rasm.** O‘lchami  $56 \times 56 \text{ mm}^2$  bo‘lgan 24 ta kremniy asosli quyosh elementining ketma-ket ulanishidan hosil qilingan prizma shakldagi 3D formatli fotoenergetik qurilmani salt yurish kuchlanishini qurilmaning burchak tezligiga bog‘liqligi



